



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I

2026-2027-o‘quv yilida umumiy o‘rta ta’lim maktablarining
1-sinfiga qabul jarayonlarini tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi 295-son qaroriga muvofiq, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinfiga qabul qilish bo‘yicha davlat xizmatini joriy etish maqsadida **buyuraman**:

1. 2026-2027-o‘quv yilida 1-sinfga qabul qilish bo‘yicha davlat xizmati orqali amalga oshiriladigan tuman (shahar)lar soni **64 tadan 135 taga**, umumiy o‘rta ta’lim maktablari soni **1956 tadan 5689 taga** ortganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2026-2027-o‘quv yilida davlat umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinfiga qabul bo‘yicha davlat xizmati joriy etiladigan tuman (shahar)lar ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Belgilab qo‘yilsinki:

2026-2027-o‘quv yilida 1-sinfga qabul qilish bo‘yicha davlat xizmati Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) yoki Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining elektron davlat xizmatlari portali (my.maktab.uz) orqali **2026-yilning 20-iyunidan – 31-iyuliga qadar** biriktirilgan mikrohudud doirasida hamda **1-31-avgustga qadar** mikrohududdan tashqari hududlardan amalga oshiriladi;

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinfiga bolalar ular yetti yoshga to‘ladigan (2026-2027-o‘quv yilida 2019-yilning 31-dekabr kunigacha tug‘ilgan) yilda qabul qilinadi;

davlat xizmati joriy etilmagan tumanlardagi umumiy o‘rta ta’lim maktablariga 1-sinfga qabul jarayonlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-son qarorida belgilangan tartibda umumiy o‘rta ta’lim maktablari rahbarlari tomonidan amalga oshiriladi (keyingi o‘rinlarda – an’anaviy shaklda) hamda maktabga qabul qilingan o‘quvchilar vazirlikning elektron tizimi (adm.maktab.uz)ga kiritiladi;

qabul jarayonlarining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash maqsadida bolalarni 1-sinfga qabul qilish bo‘yicha ma’lumotlar (qabul rejasi, qabul vaqtlari, biriktirilgan mikrohudud, davlat tilidan boshqa til bo‘yicha sinflar tanlangan taqdirda, bolaning boshlang‘ich so‘zlashuv ko‘nikmasini baholash bo‘yicha savolnoma) maktab binosining barcha uchun ko‘rinarli joyiga osib qo‘yiladi;

qabul qilish muddati tugagandan so'ng, umumiy o'rta ta'lim maktablari tomonidan mikrohudud va mikrohududdan tashqari o'quvchilar qabul qilinishiga yo'l qo'yilmaydi;

umumiy o'rta ta'lim maktabining 1-sinfiga bolalarni o'rnatilgan tartibda qabul qilish hamda qabul jarayonlarini shaffof tarzda tashkil etishga **maktab direktori shaxsan javobgar hisoblanadi**;

1-sinf qabul jarayonlarining belgilangan tartibda ochiq va shaffof o'tkazilishini ta'minlashga tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshliqlari, qabul jarayonlarni nazorat qilib borishga Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, viloyatlar hamda Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari boshliqlari **shaxsan mas'ul hisoblanadi**.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar hamda Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari (keyingi o'rinlarda – hududiy boshqarmalar) **joriy yilning 10-iyuniga qadar**:

umumiy o'rta ta'lim maktablari qamrovini hisobga olgan holda biriktirilgan mikrohududlarni qayta ko'rib chiqish hamda zaruriyatga ko'ra tuman (shahar) hokimliklarining qarori bilan tasdiqlanishini ta'minlash;

1-sinf qabul rejasi hamda tuman (shahar) hokimliklarining qarori bilan biriktirilgan mikrohudud bo'yicha mahallalar, ko'cha nomlari va uy raqamlari to'g'risidagi yangilangan manzilli ma'lumotlarni elektron platformaga kiritilishini ta'minlash;

biriktirilgan mikrohududdagi maktab yoshidagi bolalar soni, umumiy o'rta ta'lim maktabining o'quvchi o'rni (quvvati), pedagoglar bilan ta'minlanganligi va sanitariya talablari hamda 2026-2027-o'quv yilida ta'lim tili bo'yicha darsliklarga berilgan buyurtmalarni inobatga olgan holda 1-sinf qabul rejasini tasdiqlash;

ota-onalar (ariza beruvchi)ning yashash manzili bo'yicha biriktirilgan mikrohududdagi umumiy o'rta ta'lim maktabida tanlagan ta'lim tilidagi sinf bo'lmagan taqdirda, yaqin hududda joylashgan boshqa umumiy o'rta ta'lim maktabini elektron platformaga mikrohudud sifatida biriktirish;

qabul jarayonlari an'anaviy shaklda amalga oshiriladigan umumiy o'rta ta'lim maktablari, hududdagi nodavlat ta'lim tashkilotlari, boshqa vazirlik va idoralar tasarrufidagi maktablarning 1-sinfiga qabul qilingan bolalar haqidagi ma'lumotlarni shu kunning o'zida vazirlikning elektron tizimi (adm.maktab.uz)ga kiritilishini ta'minlash;

fuqarolar tomonidan yuborilgan elektron arizalarni mikrohudud bo'yicha yashash manzilini o'rganish hamda belgilangan muddatda mikrohududdagi manzili bo'yicha umumiy o'rta ta'lim maktabiga yuborish uchun moderatorlarni belgilash va ularning xolis, shaffof faoliyat yuritishi ustidan doimiy nazorat olib borish;

umumiy o'rta ta'lim maktablariga farzandlarining hujjatlarini topshirish uchun kelgan ota-onalarni elektron navbatda belgilangan muddatda qabul qilinishini tashkil etish;

ota-onalar va keng jamoatchilikka umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 1-sinfiga qabul qilish tartibi, maktabga qabul qilish yoshi va birlashtirilgan mikrohudud doirasida hamda mikrohududdan tashqari qabul toʻgʻrisida batafsil tushuntirish ishlarini olib borish;

hududiy boshqarmalar hamda tuman va shahar boʻlimlarida qabul jarayonlarini muvofiqlashtirish boʻyicha shtab tashkil etilgan holda har bir fuqaro (ota-ona)ning murojaatlarini tezkorlik bilan koʻrib chiqish;

har bir umumiy oʻrta taʼlim maktablari rahbarlaridan 1-sinfga qabul jarayonlarini shaffof oʻtkazish va qonunbuzarlik (tamagirlik va korrupsiya) holatlariga yoʻl qoʻymasligini ogohlantirgan holda kafolat xatlarini olish;

elektron tizimga kiritmasdan oʻquvchilarni qabul qilgan maktab masʼullariga nisbatan tegishli choralarni koʻrish;

yangi oʻquv yiliga samarali tayyorgarlik koʻrish doirasida maktablarni malakali boshlangʻich sinf oʻqituvchilari bilan toʻldirish choralarni koʻrish vazifalari yuklatilsin.

5. Umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlari va ixtisoslashtirilgan taʼlim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (E.Murodov) 2026-2027-oʻquv yilida umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 1-sinfiga maktab yoshidagi bolalarni qabul qilish jarayonini muvofiqlashtirib borsin.

6. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, raqamlashtirish va sunʼiy intellektni rivojlantirish boshqarmasi (S.Moʻminov) “Davlat axborot tizimlarini yaratish va qoʻllab-quvvatlash boʻyicha yagona integrator-UZINFOCOM” MChJ bilan hamkorlikda:

2026-yilning 5-iyun kuniga qadar “Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 1-sinfiga oʻquvchilarni onlayn qabul qilish – my.maktab.uz” elektron platformasini takomillashtirish va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali, shuningdek, yangi qoʻshilgan hududlardagi qabul jarayonlari bilan bogʻliq maʼlumotlarni boshqa vazirlik va idoralarning axborot tizimlari bilan integratsiyani taʼminlasin;

qabul jarayonlarini tizimli tashkil etish hamda foydalanuvchilarni texnik qoʻllab-quvvatlash maqsadida call-markaz hamda texnik xodimlar guruhlarini tashkil qilish;

elektron platformadan foydalanish boʻyicha tizim foydalanuvchilari, jumladan, elektron qabul jarayonlariga yangi qoʻshilgan maktablarning masʼul xodimlari uchun oʻquv seminarlari oʻtkazish, tizimdan foydalanish boʻyicha qoʻllanmalar (videorolik, taqdimot, yoʻriqnoma) tayyorlash vazifalari yuklatilsin.

7. Oʻquvchilarni kasb-hunarga yoʻnaltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi (L.Gaynutdinova) Respublika taʼlim markazi (D.Norboyeva) bilan birgalikda **joriy yilning 1-iyun kuniga qadar** umumiy oʻrta taʼlim maktablarida tanlangan taʼlim tili ona tilidan boshqa til boʻlgan bolalar uchun bolaning boshlangʻich soʻzlashish koʻnikmasini baholash boʻyicha namunaviy savolnomani ishlab chiqsin.

8. “Taʼminot va logistika xizmati” davlat unitar korxonasi (B.Islamov), hududiy boshqarmalar bilan birgalikda:

2026-yil 10-avgustga qadar 2026-2027-o'quv yilida 1-sinfga qabul qilingan va vazirlikning elektron tizimi (adm.maktab.uz)ga kiritilgan bolalar soni bo'yicha 12 nomdagi o'quv quollaridan iborat Prezident sovg'alarini tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlariga to'liq yetkazilishini;

2026-yil 20-avgustiga qadar 1-sinfga qabul qilingan bolalar uchun 12 nomdagi o'quv quollaridan iborat Prezident sovg'alarini vazirlikning elektron tizimi (adm.maktab.uz)ga kiritilgan bolalar soniga mos ravishda umumiy o'rta ta'lim maktablariga tarqatilishini ta'minlasin.

9. Vazirlikning axborot xizmati (D.Sobirova) buyruqning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirib borish maqsadida ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalar va ommaviy axborot vositalarida muntazam yoritib borsin.

10. Protokol bo'limi (F.Keldibekov) ushbu buyruqni bir kun muddatda departament, boshqarma va bo'limlar, hududiy boshqarmalar hamda vazirlik tasarrufidagi muassasalarga yetkazilishini ta'minlasin.

11. Ushbu buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinbosari Sh.Karimov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



E.Karimova

Toshkent sh.,
2026 - yil "31"-mart,
115 - son